



Andijon viloyati statistika boshqarmasi

Andijon viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2021- yil yanvar-mart davri uchun (dastlabki ma'lumot)

Joriy yilning yanvar-mart davri uchun Andijon viloyati bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2483,4** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **0,8 %** ga oshdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan asosiy mehnat ko'rsatkichlarining o'zgarishi, %da

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)


	Korxonalar va tashkilotlar soni	100,9%
	Xodimlar soni	105,9%
	Jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar	107,2%
	O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi	100,8%

Ish haqi. 2021- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Sanoat




□ **Sanoat** iqtisodiy faoliyat turidagi **64** ta korxonada **40,5** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **19,3 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar **365,6** mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi **25,2 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik

nominal ish haqi **3159,5** ming soʻmni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **8,6 %** ga pasaygani aniqlandi.

□ **Qurilish** faoliyat turidagi **12** ta korxonada **1,2** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **0,6 %**) xodim ishlagan boʻlib, ularga hisoblangan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar **6,9** mlrd soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi **0,5 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi **2185,8** ming soʻmni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **5,3 %** ga pasaygani aniqlandi.



□ **Savdo** faoliyat turidagi **23** ta korxonada **2,7** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **1,3 %**) xodim ishlagan boʻlib, ularga hisoblangan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar **17,6** mlrd soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi **1,2 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi **2149,8** ming soʻmni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **3,0 %** ga oʻsdi.




□ **Tashish va saqlash** faoliyat turidagi **14** ta korxonada **2,5** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **1,2 %**) xodim ishlagan boʻlib, ularga hisoblangan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar **11,5** mlrd soʻmni (jami mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlardagi ulushi **0,8 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi **1813,8** ming soʻmni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **24,8 %** ga oʻsdi.





Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




□ **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar** sohasidagi **5** ta korxonada **0,3** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **0,2** %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar **1,1** mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi **0,1** %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi **1147,4** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **15,5** % ga o'sdi.


□ **Axborot va aloqa** sohasidagi **4** ta korxonada **0,9** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **0,4** %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar **7,6** mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi **0,5** %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi **2681,1** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **21,6** % ga o'sdi.



Axborot va aloqa



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik




□ **Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik** iqtisodiy faoliyat turidagi **25** ta korxonada **4,0** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **1,9** %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar **71,3** mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi **4,9** %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi **5649,8** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **8,8** % ga o'sdi.

□ **Ta'lim sohasi** iqtisodiy faoliyat turidagi **1534** ta korxonada **91,6** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **43,8** %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar **558,0** mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi **38,4** %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi **2224,5** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **7,0** % ga o'sdi.




Ta'lim





Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




□ **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi** 77 ta korxonada **39,1** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **18,7** %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **223,5** mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi **15,4** %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi **2035,9** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **10,8** % ga o'sdi.

□ **San'at, ko'ngil ochar va dam olish sohasidagi** 76 ta korxonada **2,2** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **1,0** %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar **11,2** mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi **0,8** %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi **1784,9** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **8,5** % ga o'sdi.




San'at, ku'ngil ochar va dam olish



□ **Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasidagi** 400 ta korxonada **24,5** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **11,7** %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar **178,6** mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi **12,3** %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi **2432,4** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **9,7** % ga o'sdi.



Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasidagi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyat turida kuzatildi va **5649,8** ming so'mni tashkil etdi. Shuningdek yuqori ko'rsatkichlar **sanoat** faoliyat turida (**3159,5** ming so'm) va **axborot va aloqa** faoliyat turida (**2681,1** ming so'm) kuzatildi. Eng past ko'rsatkich esa **yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar** faoliyat turida kuzatildi va **1147,4** ming so'mni tashkil etdi.




O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi


(yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so'm)




Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash




Axborot va aloqa




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik




Ta'lim



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




San'at, ko'ngil ochar va dam olish



Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasida




Shahar va tumanlar kesimidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2021- yil yanvar - mart, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda)



Shuningdek, hududlar kesimida qaraydigan bolsak, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Asaka tumani (**3464,9** ming so‘m), Andijon shahrida (**3090,4** ming so‘m) kuzatildi. Aksincha, Bo‘ston va Baliqchi tumanlarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi boshqa hududlarga nisbatan past miqdorda bo‘ldi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati

(2021- yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)




O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(yanvar-mart; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so'mda)

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, %
Andijon viloyati	2463,7	2483,4	100,8
<i>shaharlar</i>			
Andijon sh.	2903,9	3090,4	106,4
Xonobod sh.	2431,6	2441,9	100,4
<i>tumanlar</i>			
Oltinko'l	1627,0	1811,9	111,4
Andijon	2016,9	2110,5	104,6
Baliqchi	1602,9	1757,1	109,6
Bo'ston	1650,4	1711,7	103,7
Buloqboshi	1769,3	1857,3	105,0
Jalaquduq	2066,6	1898,1	91,8
Izboskan	1810,1	2120,7	117,2
Ulug'nor	1737,8	1817,8	104,6
Qo'rg'ontepa	1918,5	1991,0	103,8
Asaka	4129,8	3464,9	83,9
Marxamat	1794,3	1860,7	103,7
Shaxrixon	1919,4	1937,9	101,0
Paxtaobod	2006,1	2258,8	112,6
Xo'jaobod	2170,0	2016,1	92,9

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat ko'rsatkichiga nisbatan o'sish sur'ati

(2021- yil yanvar-mart oylarida, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining viloyat ko'rsatkichiga nisbatan yuqori darajasi Asaka tumani (**3464,9** ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **39,5** %ga yuqori), Andijon shahri (**3090,4** ming so'm, **24,4** %ga yuqori) da kuzatilgan bo'lsa, Baliqchi tumani (**1757,1** ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **29,2** %ga past), va Bo'ston tumani (**1711,7** ming so'm, viloyat ko'rsatkichidan **31,1** %ga past) da kuzatildi.

Ma'lumot uchun:

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrda PQ-4938 sonli qaroriga binoan 2021 yil 1-fevral sanasidan **747 300** so'mni tashkil etdi) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

